



CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

Asosiy tarkib



Yirik korxonalar




Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari

Dastlabki ma'lumotlar

Namangan viloyati bo'yicha 2021-yilning yanvar-may oylarida chakana savdo tovar 4 843,2 mlrd. so'mni tashkil etib, 2020- yil yanvar-may oylariga nisbatan 7,7% ga ko'paygan. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 362,2 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 70,5%), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 4 481,0 mlrd. so'mni (12,5 % ga ko'paygan. shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 677,4 mlrd. so'mni (51,2% ga ko'paydi) tashkil etdi.

O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda

Tarkibiy qism, ulushlarda






UMUMIY MA'LUMOT

Namangan viloyati bo'yicha 2021-yilning yanvar-may oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **4 843,2** mlrd. so'm ni tashkil etib, 2020-yil yanvar-may oylariga nisbatan **7,7 %** ni tashkil etdi.

Namangan viloyati chakana savdo tovar aylanmasida barcha viloyatlarda kamayish sur'atlari kuzatildi. Chakana savdo tovar aylanmasining tarkibiy qismlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga **92,5 %** va yirik korxonalar hissasiga **7,5 %** to'g'ri keldi.




ENG YUQORI ULUSH

Namangan viloyati bo'yicha chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Namangan shahri **44,2 %** ulush bilan **2 139,3** mlrd. so'm ni tashkil etdi.

ENG QUIYI ULUSH

Namangan viloyati chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni Mingbuloq tumanida **2,8 %** ulush bilan **136,8** mlrd. so'mni tashkil etdi.

YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda



Chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2021- yil yanvar-may oylari yakuniga ko'ra, 4 481,0 mlrd.so'm ni tashkil etib, 2020- yil yanvar-may oylariga nisbatan 12,5 % ga ko'paygan. Jami chakana savdo tovar aylanamasidagi ulushi esa 92,5 % ni tashkil etdi.


Bu ko'rsatkich hududlar kesimida taqqoslanganda, Uychi(98,7 %), Kosonsoy(98,6 %), Mingbuloq(98,4 %), Chortoq(96,7 %), Yangiqorg`on va Namangan(96,6 %) va Uchqo`rg`on (93,0 %) tumanlarida yuqori bo'lgan.





2020- yilning yanvar-may oylariga nisbatan viloyatning barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining ko'payish sur'atlari kuzatilib, nisbatan yuqori ko'rsatkichlar Norin (112,8 %) va Yangiqo'rg'on (110,3 %) tumanlarida qayd etildi.



Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'atlari, foizda



	Jami, mlrd. so'm	2020- yil yanvar-may oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2020- yil yanvar-may oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so'm	2020- yil yanvar-may oylariga nisbatan, foizda
Namangan viloyati	4843,2	107,7	362,2	70,5	3803,7	107,6
Namangan.sh	2139,3	108,1	160,0	98,1	1792,5	106,2
tumanlar:						
Mingbuloq	136,8	109,5	2,2	112,0	101,8	100,6
Kosonsoy	219,0	107,6	3,0	108,6	174,4	100,5
Namangan	220,2	106,9	7,5	139,4	181,4	100,9
Norin	201,0	112,8	20,6	131,4	133,7	100,9
Pop	287,9	111,1	22,6	109,7	215,9	104,8
To'raqo'rg'on	306,0	116,1	21,8	141,4	197,0	100,0
Uychi	222,5	102,4	2,9	7,7	188,9	119,0
Uchqo'rg'on	185,5	106,6	13,1	100,9	144,7	101,1
Chortoq	195,4	102,3	6,4	16,9	141,2	112,9
Chust	513,8	101,8	94,8	49,2	372,0	130,9
Yangiqo'rg'on	215,9	110,3	7,3	103,4	160,2	100,7

Yirik korxonalar

Eng yuqori ulushga
ega hududlar, foizda





Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi, 2020- yilning yanvar-may oylariga nisbatan 70,5 % ga kamaydi va **362,2** mlrd. soʻmni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining **7,5 %** ulushiga toʻgʻri keladi.



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari


Eng yuqori ulushga
ega hududlar, foizda




Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga koʻra, **4 481,0** mlrd. soʻmni tashkil etib, 2020- yilning yanvar-may oylariga nisbatan **12,5 %** ga koʻpaygan. viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **92,5 %** ni tashkil etdi.



**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK
BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING
HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI (foizda)**



Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Uychi (98,7%), Kosonsoy, (98,6%), Mingbuloq (98,4%), Chortoq, (96,7%), Yangiqo`rg`on va Namangan, (96,6 %), Uchqo`rg`on (93,0%) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 7,5% ni tashkil etib, eng katta ulush Chust (18,5%), Norin (10,3%), Pop, (7,8%) tumanlarida kuzatildi.



NAMANGAN VILOYATI BO'YICHA AHOLI JON BOSHIGA NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

2021- yil yanvar-may oylari holatiga ko'ra o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi **1 685,7** ming so'm (2020- yil yanvar-may oylariga nisbatan 5,6 % ga ko'paygan). To'raqo'rg'on, (114,7 %), Norin (110,9 %), Pop (109,2 %) tumanlari va boshqa barcha hududlarda aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi ko'rsatkichlarida ko'payish sur'atlari kuzatildi.

Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqorisi Namangan shahri (3 309,0 ming so'm), Chust (1 905,0 ming so'm) va To'raqo'rg'on (1 339,1 ming so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.




	Hajm, ming so'm	2020- yil yanvar-may oylariga nisbatan, % da
Namangan viloyati	1 685,7	105,6
Namangan.sh	3 309,0	105,0
tumanlar:		
Mingbuloq	1 064,0	107,3
Kosonsoy	1 026,6	105,4
Namangan	1 222,6	106,2
Norin	1 208,1	110,9
Pop	1 291,0	109,2
To'raqo'rg'on	1 339,1	114,7
Uychi	1 024,0	100,3
Uchqo'rg'on	1 060,4	104,7
Chortoq	965,0	100,5
Chust	1 905,0	100,1
Yangiqo'rg'on	971,1	107,9



2021-yilning yanvar-may oylarida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 1,4 % ni tashkil etib, 68,5 mlrd. so'mga yetdi va 2020- yil yanvar-may oylariga nisbatan 5,1 % ga ko'paygan. Bunda jami savdo aylanmasining 92,7 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo aylanmasining o'sish sur'atlari, foizda



	Jami, mlrd. so'm	2020- yil yanvar-may oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2020- yil yanvar-may oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so'm	2020- yil yanvar-may oylariga nisbatan, foizda
Namangan viloyati	68,5	105,1	5,0	89,0	63,5	106,6
Namangan.sh	36,8	108,8	5,0	93,0	31,8	111,8
tumanlar:						
Mingbuloq	1,7	100,6	0,0	0,0	1,7	100,6
Kosonsoy	2,1	100,3	0,0	0,0	2,1	100,3
Namangan	3,9	101,8	0,0	0,0	3,9	106,3
Norin	2,0	101,0	0,0	0,0	2,0	101,0
Pop	4,3	100,9	0,0	0,0	4,3	100,9
To'raqo'rg'on	3,4	100,4	0,0	0,0	3,4	100,4
Uychi	1,6	101,2	0,0	23,5	1,6	103,9
Uchqo'rg'on	3,3	102,3	0,0	0,0	3,3	102,3
Chortoq	2,3	101,4	0,0	0,0	2,3	101,4
Chust	5,9	100,3	0,0	0,0	5,9	100,9
Yangiqo'rg'on	1,4	104,2	0,0	0,0	1,4	104,2

ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

Asosiy tarkib, foizda




Yirik korxonalar




Mikrofirma va kichik korxonalar

Namangan viloyati bo'yicha 2021- yilning yanvar-may oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi **1 446,0** mlrd. so'm ni tashkil etib, 2020- yil yanvar-may oylariga nisbatan **6,0 %** ga ko'paygan. Shu jumladan, yirik korxonalarining savdo tovar aylanmasi **426,5** mlrd. so'mni (**103,0 %** ga ko'paygan), mikrofirmalar va kichik biznes subyektlarining savdo tovar aylanmasi **1019,5** mlrd. so'mni (**5,1 %** ga ko'paygan).


O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda



Savdo aylanmasi hajmi va ulushi



Eng yuqori ulushga ega hududlar






Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga ega yirik korxonalar Chortoq (302,8 %), To'raqo'rg'on (257,7 %), Uychi (231,6 %), Pop (126,1 %) tumanlarida kuzatildi.


Ulgurji tovar aylanmasida nisbatan yuqori o'zgarish sur'atlari, Uychi (152,2 %), To'raqo'rg'on (165,6 %), Chortoq (121,4 %) viloyatlarida qayd etildi.

Ulgurji savdo aylanmasi o'sish sur'atlari, foizda




	Jami, mlrd. so'm	2020- yil yanvar- may oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2020- yil yanvar- may oylariga nisbatan, foizda	Mikrofirma va kichik korxonalar, mlrd. so'm	2020- yil yanvar- may oylariga nisbatan, foizda
Namangan viloyati	1446,0	106,0	426,5	108,0	1019,5	105,1
Namangan.sh	604,3	100,0	121,7	98,9	482,6	100,3
tumanlar:						
Mingbuloq	21,4	100,8	0,0	11,5	21,4	101,9
Kosonsoy	65,6	100,2	0,1	85,2	65,5	100,2
Namangan	50,5	101,0	0,5	82,9	50,0	101,2
Norin	65,2	100,8	16,1	91,8	49,2	104,2
Pop	57,8	101,1	0,4	126,1	57,4	100,9
To'raqo'rg'on	172,8	165,6	111,7	257,7	61,2	100,2
Uychi	112,7	152,2	66,6	231,6	46,0	101,7
Uchqo'rg'on	48,8	101,0	26,0	79,8	22,9	144,5
Chortoq	70,6	121,4	18,2	302,8	52,4	100,5
Chust	123,8	75,0	65,2	45,8	58,5	260,0
Yangiqo'rg'on	52,5	100,5	0,0	0,0	52,5	100,5

YIRIK KORXONALAR VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda



Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes subyektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2021- yil yanvar-may oylari yakuniga ko'ra, **1 019,5** mlrd. so'mni tashkil etib, 2020- yil yanvar-may oylariga nisbatan **5,1** % ga ko'paygan. Jami ulgurji savdo tovar aylanamasidagi ulushi esa **70,5** % ni tashkil etdi.

Bu ko'rsatkich hududlar kesimida taqqoslanganda, Yangiqo`rg`on (100,0 %), Mingbuloq (99,9 %), Kosonsoy, (99,8 %), Pop (99,2 %) tumanlarida yuqori bo'lgan. Eng past ulush esa To`raqo`rg`on(35,46 %) tumaniga to'g'ri keldi.



Tashqi iqtisodiy faoliyat va
savdo statistikasi
boshqarmasi
Tel : (69)-211-72-00